

RAQAMLI MUHITDA SHAXSNI IDENTIFIKATSIYA QILISHNING HUQUQIY MUAMMOLARI

Yarashova Dilnoza Asrorovna

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: maqolada raqamli identifikatsiya tushunchasi va uning amaliy ahamiyati, milliy qonunchilikda uni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlardagi mavjud bo‘shliqlar va amaliy muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, ularni bartaraf etish bo‘yicha asoslantirilgan takliflar beriladi. Takliflar asnosida sohada yetakchi bo‘lgan Estoniya va boshqa davlatlar tajribalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: raqamli identifikatsiya tizimi, OneID, MyID, biometrik ma’lumotlar, shaxsiy identifikatsiya raqami, shaxsga doir ma’lumotlar.

Kirish

Raqamli identifikatsiya – raqamli muhitda ma’lum bir xususiyatlar asosida shaxsni aniqlash va kimligini, tasdiqlash jarayonidir. Mamlakatimizda davlat boshqaruvidan tortib elektron tijorat sohasigacha raqamli identifikatsiya qilish keng qo‘llanilib kelinayotgan bir paytda identifikatsiya qilinuvchi shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, axborot xavfsizligini ta’minlash hamda ishonchli identifikatsiya xizmatlarini taqdim etish davlatimiz oldida muhim vazifalardan bo‘lib hisoblanadi.

Shu sababli, sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shundan kelib chiqib, raqamli identifikatsiya tizimlari bilan bog‘liq normativ-huquqiy hujjatlardagi ayrim kamchiliklar va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Asosiy qism

Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 17-dekabrda 365-son qarori bilan tasdiqlangan “Elektron hukumat” tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalashning yagona axborot tizimi to‘g‘risida nizomning 2-bandiga asosan jismoniy va yuridik shaxslarning “Elektron (raqamli) hukumat” tizimi doirasida idoralararo elektron hamkorlik orqali interaktiv davlat xizmatlarini hamda bank, moliya va boshqa subyektlarning xizmatlarini ko‘rsatish “Elektron hukumat” tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalash yagona axborot tizimi (keyingi o‘rinlarda – identifikatsiyalashning yagona tizimi – OneID tizimi) yordamida amalga oshiriladi¹.

Bugungi kunda OneID tizimi 300 dan ortiq, shu jumladan, davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi davlat va xususiy sektor axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan bo‘lib, mazkur axborot tizimlariga avtorizatsiyadan o‘tgan holda kirish imkonini beradi. Tadqiqot ishi doirasida huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish jarayonida OneID tizimi vafot etgan shaxslar haqidagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida avtomatik tarzda ololmasligi ma’lum bo‘ldi. Natijada shaxs vafot etganidan so‘ng ham tizimdagi shaxsiy hisobi faol holatda qolmoqda. Mazkur holatda vafot etgan shaxsning tizimdagi hisobidan foydalanib davlat xizmatlari yoki boshqa xizmatlarni olish uchun ariza berish yoki boshqa harakatlarni amalga oshirish jiddiy huquqiy va axborot xavfsizligi muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

Fikrimizni amaliyotdan bir misol keltirish orqali izohlashimiz mumkin. O‘zbekistonda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali davlat organlari tomonidan ko‘rsatiladigan elektron davlat xizmatlaridan foydalanishning yagona

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jismoniy va yuridik shaxslar markaziy ma’lumotlar bazalarini shakllantirish va “Elektron hukumat” tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalashning yagona axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 17.12.2015 yildagi 365-son qarori // <https://lex.uz/docs/-2843015>.
SJIF: 5.051

nuqtasi hisoblanadi². Avval ta'kidlanganidek, Portal orqali jismoniy va yuridik shaxslar 730 dan ortiq elektron davlat xizmatlari va servislaridan foydalanishlari mumkin. Shu jumladan, Portal orqali jismoniy shaxslar o'zlariga tegishli avtomototransport vositasini boshqarish huquqini beruvchi ishonchnomani elektron shaklda rasmiylashtirish bo'yicha ariza berib, xizmatdan foydalanishlari mumkin. Amaliyotdagi bir vaziyatda A ismli shaxs 2024-yilning dekabr oyida vafot etganiga qaramay, 2025-yil yanvar oyida marhumning nomidan Portal orqali avtomototransport vositasini boshqarish huquqini beruvchi ishonchnoma rasmiylashtirilgan. Aynan ushbu vaziyat davlat va jamiyat, xususan ushbu munosabatda ishtirok etuvchi shaxslar hayoti uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarmasada, OneID identifikatsiya tizimi orqali avtorizatsiya qilish talab qilinadigan boshqa xizmatlar salbiy huquqiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Fikrimizcha, sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlardagi bo'shliqlar huquqni qo'llash amaliyotidagi bu kabi muammolarga asosiy sabab bo'ladi.

Shu sababli, Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 17-dekabrda 365-son qarori bilan tasdiqlangan "Elektron hukumat" tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalashning yagona axborot tizimi to'g'risida nizomga foydalanuvchi vafot etgan taqdirda, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan shaxsning o'limi haqidagi ma'lumotnomani "FHDYning yagona elektron arxivi" axborot tizimi orqali real vaqt rejimida identifikatsiyalashning yagona tizimiga elektron shaklda yuborishi haqida norma kiritilishi maqsadga muvofiq. Ushbu ma'lumot asosida identifikatsiyalashning yagona tizimi tomonidan vafot etgan shaxsning identifikatsiyalash yagona tizimidan foydalanishini blokirovka qiladi.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 15.09.2017 yildagi 728-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.07.2024-y., 09/24/380/0487-son. <https://lex.uz/ru/docs/-3353186>.

So'ng ushbu norma asosida identifikatsiyalashning yagona tizimida shaxsiy ma'lumotlar asosida xizmatlardan foydalanish xavfsizligini ta'minlash maqsadida, agar foydalanuvchi (jismoniy shaxs) vafot etsa, bu haqda Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYo) bo'limi tomonidan tizimga avtomatik tarzda xabar yuborilishi va tizim tomonidan ushbu foydalanuvchining akkauntini bloklash funksiyasi yo'lga qo'yilishi lozim.

Bugungi kunda zamonaviy davlat boshqaruvi va elektron xizmatlar tizimida raqamli identifikatsiya muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, transmilliy mobil xizmatlar va barcha shaxslar uchun teng huquqli imkoniyatlarni ta'minlashda "mobil rezidentlik" instituti dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu institutning joriy etilishi shaxsni masofadan turib aniq aniqlash imkonini beruvchi raqamli identifikatsiya texnologiyalariga bevosita bog'liqdir. Shu munosabat bilan, O'zbekistonda mobil rezidentlik konsepsiyasini joriy etish va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan identifikatsiya mexanizmlarini huquqiy tartibga solish masalalari o'rganishni talab qilmoqda.

Xorijiy davlatlar tajribasida "mobil rezidentlik" va "elektron rezidentlik" tushunchalari o'zaro almashinib ishlatiladi. Sodda tilda tushuntirganda, mobil rezidentlik yoki elektron rezidentlik – jismoniy va yuridik shaxslarni boshqa davlat hududida masofadan turib identifikatsiyadan o'tkazish hamda ularga tegishli identifikatsiya raqamlarini taqdim etishga aytiladi. Berilgan identifikatsiya raqamlari asosida jismoniy va yuridik shaxslar davlat xizmatlari, bank-moliya sohalarining xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Milliy qonunchilikni o'rganish natijasida O'zbekiston Respublikasida jismoniy va yuridik shaxslarni identifikatsiya qilishning bir qator usul vositalari amaliyotda qo'llanilishi ma'lum bo'ldi.

Xususan, jismoniy shaxslar bo'yicha:

- birlamchi, ya'ni jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini (keyingi o'rinlarda – shaxsiy identifikatsiya raqami) berish;
- yagona identifikatsiya (One ID) tizimida (login va parol; Mobile-ID; elektron raqamli imzo orqali) identifikatsiyadan o'tkazish;
- Face-ID orqali (biometrik) identifikatsiya qilish.

Yuridik shaxslar bo'yicha:

- yuridik shaxslarga soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini (STIR) berish;
- chet elda tashkil etilgan yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasini hisobga qo'yish va ushbu doimiy muassasaga soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini (STIR) berish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlaridan foydalanishda yanada qulay sharoitlar yaratish, bu borada byurokratik to'siqlarni qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 23-martdagi PF-6191-son Farmoniga asosan shaxsiy identifikatsiya raqami barcha davlat, bank, ijtimoiy va boshqa xizmatlarni ko'rsatishda fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi yagona identifikator hisoblanadi³.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 177-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini aniqlash va berish tartibi to'g'risidagi ma'muriy reglamentiga asosan shaxsiy identifikatsiya raqami:

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlaridan foydalanishda yanada qulay sharoitlar yaratish, bu borada byurokratik to'siqlarni qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 23.03.2021 yildagi PF-6191-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.03.2021-y., 06/21/6191/0229-son. <https://lex.uz/docs/-5339616>.

xorijiy davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga identifikatsiyalovchi ID-kartasi berilganda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha bo'lib turgan yoki o'z faoliyatini ishonchli vakili orqali amalga oshirayotgan chet el fuqarolariga – davlat xizmatlari markazlari tomonidan yoki ichki ishlar organlari migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalari tomonidan beriladi.

Yuqoridagi ma'muriy reglament talablariga asosan shaxsiy identifikatsiya raqamini berishda jismoniy shaxsning biografik (famiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, jinsi, shaxsiy identifikatsiya raqamini berish uchun asos bo'ladigan hujjatining seriyasi va raqami, uni bergan organning nomi va sanasi) hamda biometrik (barcha qo'l barmoq izlari va ICAO standartlariga muvofiq foto surati) ma'lumotlari talab qilinadi. Bunda, faqatgina 16 yoshga to'lmagan shaxslar, O'zbekiston Respublikasi hududida o'z faoliyatini ishonchli vakili orqali amalga oshirayotgan chet el fuqarolari, chet davlatlarning O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari va ularga tenglashtirilgan tashkilotlarning chet ellik diplomatik xodimlari hamda ularning oila a'zolaridan biometrik ma'lumotlar talab qilinmaydi.⁴

Shunga ko'ra, amaldagi qonunchilik hujjatlariga asosan chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga shaxsiy identifikatsiya raqami masofadan (onlayn) turib olish imkoniyati mavjud emas.

Xorijiy mamlakatlarda esa chet el jismoniy va yuridik shaxslarining masofadan turib tadbirkorlikni amalga oshirishlariga “mobil rezidentlik” va “elektron rezidentlik” dasturlari orqali keng imkoniyatlar yaratilgan. Bu

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini aniqlash va berish tartibini takomillashtirish to'g'risida” 12.04.2022 yildagi 177-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022-y., 09/22/177/0299-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5955665>.
SJIF: 5.051

imkoniyatlar o'z navbatida chet el valyutasining kirib kelishi va soliq tushumlarining ko'payishi orqali ushbu dasturlarni taklif qilayotgan davlatlar iqtisodiyotining ham tez rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

Xususan, raqamlashtirish jarayonlarida yetakchi o'rinda turuvchi Estoniya dunyoda birinchi bo'lib, 2014-yilda elektron rezidentlik (E-Residency) dasturini e'lon qildi. Hozirda ushbu dastur orqali 170 dan ortiq davlatda yashovchi 120 ming nafardan ortiq insonlarga Estoniyadagi o'z bizneslarini masofadan turib boshqarish imkoniyatini beradi⁵. Shu jumladan, dastur doirasida elektron rezident sifatida Estoniyaning har bir fuqarosiga berilganidek raqamli identifikatsiya (ID) karta beriladi hamda ushbu karta onlayn tarzda shaxsni tasdiqlash, elektron davlat va xususiy sektor xizmatlaridan foydalanish, bank hisob raqamlarini ochish va hujjatlarni raqamli tarzda imzolash imkonini beradi.

Mazkur dastur Ozarbayjon, Portugaliya, Ispaniya, Gruziya, Litva, Ukraina, Braziliya va boshqa bir nechta davlatlarda ham muvaffaqiyatli joriy etilgan.

Estoniya va boshqa davlatlarning amaliy tajribasidan ma'lumki, O'zbekistonda ham elektron yoki mobil rezidentlikni yo'lga qo'yish mamlakatimizning iqtisodiy jihatdan tez rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratishi mumkin. Buning uchun esa amaldagi qonunchilik hujjatiga zarur o'zgartirish kiritish va texnik tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim. Jumladan, birinchi navbatda Estoniya tajribasi asosida "D-Residency" platformasini (veb-saytini) ishlab chiqish lozim. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 177-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini aniqlash va berish tartibi to'g'risidagi ma'muriy reglamentiga chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan

⁵ e-Residency in Republic of Estonia. <https://www.e-resident.gov.ee/>.
SJIF: 5.051

masofadan turib, “D-Residency” platformasi orqali jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini (JShShIR) olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish lozim. Bunda ularga e-rezidentlik maqomini berishda barmoq izlarini olish talabini bekor qilinishi, uning o‘rniga shaxsning ICAO standartlariga muvofiq foto surati hamda chet el fuqarosining pasporti, fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning harakatlanish hujjati asosida onlayn rasmiylashtirishni yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Mamlakatimizda raqamli identifikatsiyani rivojlantirishga qaratilgan siyosiy va amaliy islohotlarning ko‘lami kengayib bormoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoni bilan tasdiqlangan Davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan milliy strategiyasida davlat, bank, ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish va boshqa ma‘muriy tartib-taomillardan o‘tishda shaxsni identifikatsiya qilishning muqobil usullarini joriy etish (Mobil-ID, bank plastik kartasi orqali identifikatsiyalash, biometrik identifikatsiya – Face ID, Finger Print) belgilangan⁶.

Hozirda O‘zbekiston biometrik identifikatsiya qilish vositasi sifatida “MyID” tizimidan davlat xizmatlari, bank xizmatlari, sug‘urta, to‘lov tizimlari, mobil aloqa xizmatlari hamda qimmatli qog‘ozlar sohasida 100 ga yaqin tashkilotlar shu jumladan, davlat organlari, tijorat banklari, marketpleyslar, mobil aloqa operatorlari tomonidan foydalanilmoqda⁷.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat xizmatlari ko‘rsatishni soddalashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida 20.04.2022 yildagi PF-113-son Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.05.2025-y., 06/25/84/0432-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5971599>.

⁷ MyID – biometrik identifikatsiya tizimi. <https://myid.uz/uz/>.

Biroq milliy qonunchilikni tahlil qilish jarayonida biometrik identifikatsiya qilish tartibi belgilangan normativ-huquqiy hujjat mavjud emasligi ma'lum bo'ldi. Darhaqiqat, yuqorida nazarda tutilgan Farmon ushbu tizimni joriy etish uchun asos hisoblanadi. Biroq shaxsga doir ma'lumotlarni xususan, biometrik ma'lumotlarni himoya qilish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etayotgan raqamli davrda, tizimni tartibga soluvchi huquqdagi bo'shliq ya'ni qonunchilik hujjatining yo'qligi fuqarolarning haqli e'tirozlariga sabab bo'lishi mumkin.

Biror sohani yoki jarayonni tartibga solishga qaratilgan normativ-hujjatning mavjudligi, unda ijtimoiy munosabatlarning amalga oshirish tartibi mavjud bo'lishini anglatadi. Shu jumladan, biometrik identifikatsiya qilishni tartibga soluvchi qonunchilik hujjati mavjud bo'lsa, unda identifikatsiya qilish shartlari, uning subyektlari va ularning huquq va majburiyatlari va eng asosiysi nizolar kelib chiqqan taqdirda ularni qanday hal etilishi kabi masalalar yoritilgan bo'lar edi. Bu borada Rossiya va Qozog'iston davlatlarining tajribasidan foydalanish mumkin.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi paytda milliy qonunchilikda raqamli identifikatsiyani tartibga solishdagi bir qator bo'shliqlarni to'ldirish va identifikatsiya bilan bog'liq ayrim tartib-taomillarni soddalashtirish lozim. Bu esa yuqorida qayd etilganidek, Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 17-dekabrdagi 365-son qarori bilan tasdiqlangan "Elektron hukumat" tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalashning yagona axborot tizimi to'g'risida nizom hamda 2022-yil 12-apreldagi 177-son qarori bilan tasdiqlangan ma'muriy reglamentiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali amalga oshirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlaridan foydalanishda yanada qulay sharoitlar yaratish, bu borada byurokratik to'siqlarni qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 23.03.2021 yildagi PF-6191-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.03.2021-y., 06/21/6191/0229-son. <https://lex.uz/docs/-5339616>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida 20.04.2022 yildagi PF-113-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.05.2025-y., 06/25/84/0432-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5971599>.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jismoniy va yuridik shaxslar markaziy ma'lumotlar bazalarini shakllantirish va "Elektron hukumat" tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalashning yagona axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 17.12.2015 yildagi 365-son qarori // <https://lex.uz/docs/-2843015>.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 15.09.2017 yildagi 728-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.07.2024-y., 09/24/380/0487-son. <https://lex.uz/ru/docs/-3353186>.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini aniqlash va

berish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 12.04.2022 yildagi 177-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022-y., 09/22/177/0299-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5955665>.

6. E-Residency in Republic of Estonia. <https://www.e-resident.gov.ee>.
7. MyID – biometrik identifikatsiya tizimi. <https://myid.uz/uz>.